



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APREL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Muyassarov Feruz Elmurod o'g'li	
BUXORO SHASHMAQOMI TARONALARI XUSUSIDA.....	7
2. Aliyeva Shahlo Ozodboyevna	
O'ZBEK RAQS MAKTABLARINING YARATILISH TARIXI.....	9
3. Urazbayev Javlan Alimboyevich, Kamalova Durdipashsha Xaytbayevna	
VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI	11



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

BUXORO SHASHMAQOMI TARONALARI XUSUSIDA

Muyassarov Feruz Elmurod o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

4-bosqich talabasi

Telefon: +998936820542

Annotatsiya: Ushbu maqola og'zaki an'anadagi professional musiqa namunasi hamda sharq dunyosining marvaridi Shashmaqom turkumining nasr bo'limidagi taronalari bag'ishlanadi. Unda taronalar xususida, yoyinki uning shashmaqom sho'balari orasida tutgan o'rni va vazifalari haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: shashmaqom, duvozdahmaqom, zamzama, tarona, suvora, nasr, sho'ba, saraxbor, talqin, nasrulloiy, uzzol, ushshoq.

O'zbek musiqasi ham bir qator xalqlar kabi azaldan nihol kabi bo'y cho'zib, bugungi kunda musiqa ahlini o'z soyasidan bahramand etib kelmoqda. Bunga albatta uzoq va bir qancha mashaqqatli, xatto tanazzulga uchragan umr yo'lini bosib o'tishi orqali erishilgan. Folklor musiqasining rivoji ayniqsa dehqonchilik va bir qator maishiy marosimlarning ortishi orqali rivojlanib og'zaki an'anadagi professional musiqa namunalari paydo bo'lishiga zamin yaratdi desak mubolag'adan ancha yiroqlashgan bo'lar edik. Chunonchi sharq zaminida maqom (duvozdahmaqom) larning dunyoga kelishi ham turkiy elatlarning o'z musiqiy madaniyatini o'rnatganligidan dalolat berar edi. Uning dunyoga kelishida ham ko'plab sharq qomusiy olimlarining o'rni va xizmati alohida hisobga olinadi. Masalan: Barbod Marvaziy, Ibn Sino va Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy hamda Safiuddin Urmaviylar professional musiqaning yaralishidagi asosiy siymolar sanalsa, uning rivojlanishida Mahmud Sheroziy, Xo'ja Abdulqodir Marog'iy, Mavlono Jomiy, Darvesh ali Changiy kabi mohir sozanda va bastakorlarning xissasi juda katta.

Professional musiqa ijodiyoti bir vaqtning o'zida "xalq musiqasi" deb ham nomlanadi. Unga asosan maqomlar hamda shunga o'xshash yirik shakldagi musiqa asarlari kiradi. Maqom iborasi birinchi bo'lib Safiuddin Urmaviy tomonidan ishlatilgan bo'lib, Sharq maqomatida "O'n ikki maqom tizimi" yuqoridagi allomalar yashagan davrlarda ayniqsa keng tarqalgan hamda yetakchi o'rinda turib kelgan.

XVII asrdan so'ng "O'n ikki maqom tizimi" inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan XVIII asrning o'rtalarida yirik madaniy markazlardan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlik ijrochilik faoliyatida yangicha turkum shakli uzil-kesil shakllanib, uni Buxoro maqomlari yoki "Buxoro Shashmaqomi" nomi bilan yuritiladigan bo'ldi.

Mumtoz musiqamizning "zamzama", "tarona" (eski shakli "taronik" – "taronacha", "buxorcha", "farg'onacha"ga o'xshash uslub tushunchasi), "suvora" ("asp ros") kabi iboralar bo'lib ular bevosita maqom sho'balari orasida keladi. Ular asosan shashmaqomning va qolgan maqomlarning "nasr" bo'limi ichiga kirib, maqomlarga nisbatan shaklan kichikroq bo'ladi. Shuningdek, aruz tizimida "tarona" ruboiy vazni nomidir. Sharq musiqiy ilmida "tarona" istilohi kuy, ohang, she'riyatda esa ravonlikni anglatar ekan.

Shashmaqom juda aniq va puxta rejalashtirilgan turkum hisoblanadi. Bilamizki, nasr bo'limidagi maqomlar ancha yirik va ijrochidan kuchli ovoz hamda mahorat talab etadi. Shu sababli xofiz yirik hajmli maqomni ijrosidan keyin o'ziga hamda tinglovchiga dam berish uchun taronlarni ijro etadi. Bu vaqtda ijrochining ovozi keyingi maqom sho'basiga tayyor holga keladi. Demak bu yerda taronalarning o'rni va ahamiyati juda muhim.

Shu o'rinda sho'ba-tarona aloqalarini kuzatadigan bo'lsak, unda turkumlilik xususiyati, ular orasidagi dramaturgik aloqalar yaqqol seziladi, ya'ni o'sib boruvchi (asos, rivojlanish, avj, tushirim) sho'baning taronaga ulanib ketishi uning ichki dramaturgiyasini oshiradi. Bu xususiyatni Yunus



Rajabiy quydagicha izohlaydi: “taronalar – o’zaro mantiqan ulangan bo’lib, natijada bog’lovchi zanjirni hosil qiladi, va bu vosita asosiy qismlarning bir parda ham usulidan ikkinchi parda usuliga silliq o’tishda muhim o’rin tutadi”.

Taronalar yuqoridan ta’kidlaganimizdek sho’badan sho’baga o’tuvchi bog’lovchi, yangi kontrast alomatlarining paydo bo’lishi va dam berish kabi vaifalarni bajaradi. Bu xususda olim A. Fitrat shunday fikr bildiradi: “birinchi kuyning parda ham usulidan ikkinchi kuyning parda ham usulig’a hech bir boshqaliq sezdirmasdan o’tmak uchun, ham asos kuyni o’qug’ondagi “bir turli”likdan tinglovchilarni qutqarmoq uchun asos kuylar orasig’a kichkina parchalar qo’yg’anlarda, ularni “tarona” deb atag’anlar”.

Taronalar sho’balardan keyin turli maqomlarda turlicha keladi masalan: Buzruk maqomining birinchi Saraxbori Buzruk sho’basidan keyin 6 ta tarona ketma-ket keladi, sababi Saraxbori Buzruk kuy rivojlanishi jarayonida tersiya, kvarta, kvinta, oktava darajasidagi sakrama harakatlar hamda turli pardalarga ko’chishlar tez-tez sodir bo’lib turadi. Shu sababli uning lad qiyofasini ajratib olish qiyinroq tanollikning o’zgarish taronalarida ham kuzatish mumkin. Binobarin saraxbordek yirik ashula yo’lini tinglashda jiddiy va og’ir holatni yengillashtiradi hamda eshituv hissiyotiga dam beradi. Saraxbori Buzruk taronalari kichik shakldagi yengil ashula yo’llaridir. Saraxbori Buzrukning VI taronasi keyingi sho’baga o’tuvchi vazifasini bajaruvchi suporish qismi ham hisoblanadi.

Undan keyin Buzruk maqomining ikkinchi sho’basi Talqini Uzzol bo’lib, “talqin” bu usul bo’lsa, “uzzol” kuy nomi sifatida qaraladi. Uning bitta taronasi bor, u ham bo’lsa suporish ya’ni, keying sho’baga o’tishda ishlatiladi. Buzrukning keying sho’basi Nasrullovi, 3 ta taronasi keladi. Uning birinchi taronasi juda murakkab – 13 takt o’lchovidagi doira usuli bilan ijro etiladi. Ikkinchi taronasi $3\frac{3}{4}+4\frac{1}{4}$, uchinchi taronasi $3\frac{3}{4}$ takt o’lchovida ijro etiladi. Umuman olganda Buzruk maqomi nasr bo’limida 10 ta taronaga ega hisoblanadi. Ular bir-bir bilan uzviy bog’langan. Bu haqda Is’hoq Rajabov shunday deydi – “Shuni aytish kerakki, turli sho’balarning taronalarida qandaydir umumiylik borligini anglab olish mumkinki, masalan, Saraxbori Buzruk bilan Nasrullovi taronalari bir-birining ma’lum ritmik varianti sifatida eshitaladi”.

Rost maqomida Saraxbori Rostning 4 ta taronasi bo’lib, Saraxbori Rostdagi jiddiy kayfiyat, uning taronalarga o’tib yengillashadi va yangi his-tuyg’ularni hosil qiladi. Taronalar ham maqom turkumidagi kuy mavzuining rang-barang bo’lishini ta’minlaydi. Ushbu sho’baning birinchi taronasi 13 taktli murakkab doira usuli jo’rligida ijro etilishiga qaramay, yengil va xushchaqchaq kayfiyat uyg’otadi. Bu sho’baning qolgan 3 ta taronasi ham sho’xchan va jozibali.

Undan keyin Talqini Ushshoq sho’basi va udda bitta tarona bilan keladi. Keyingi Nasri Ushshoq sho’basi esa 2 ta tarona bilan keladi. Jami Rost maqomi nasr bo’limi 6 ta tarona bilan keladi.

Navo maqomi Saraxbori Navo sho’basidan keyin 2 ta tarona ijro etiladi, ulardan birinchi turdagi o’lchovi ma’lum vaznga mos keluvchi yoki aruzga tog’ri tushmaydigan tojik xalq she’rlari bilan ijro etiladi. Ikkinchisi esa birinchi taronaning bevosita davomi sifatida yangraydi. Talqini Bayot sho’basidan keyin 1 ta tarona bor, Nasri Bayot sho’basining taronasi $3\frac{3}{4}$ takt o’lchovidagi doira usuli jo’rligida ijro etiladi. Undan keyin Taronai Bayot aytilgandan keyin turkum keying sho’baga ulovchi vazifasini o’taydigan suporish orqali Orazi Navoga ulanib ketadi.

Dugoh maqomining taronalari ham bir-biridan bejirim. Saraxbori Dugohdan keyin 6 ta tarona keladi. Undan keying Talqini Chorgoh sho’basida 1 ta, Nasri Chorgohda 1 ta, Oraz sho’basida esa 3 ta taronalari bor.

Segoh maqomi ancha taronalarga boy maqom hisoblandi. Ya’ni bitta Saraxbori Segohning o’zida 7 ta tarona mavjud. Undan keyin Talqini Segoh sho’basi 1 ta, Nasri Segoh sho’basi 1 ta, Navro’zi Xoro sho’basi 3 ta va Navro’zi Ajam sho’basi 1 ta taronaga ega.

Xulosa o’rnida aytish joizki taronalarning maqomlarda tutgan o’rni juda muhim. Nafaqat u suporish ya’ni sho’badan sho’baga o’tish vazifasini balki maqom sho’balari mavzularining ichki rang-barangligi va mavzui kontrastlilikini ta’minlab berish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Matyoqubov. Og’zaki ana’anadagi professional musiqa asoslariga kirish, Toshkent “O’qituvchi” – 1983.
2. Sh. I. Oyxo’jayeva. O’zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2008
3. Yu. Rajabiy. Макомы и мугамы. Toshkent: “Fan”, 1992.
4. I. Rajabov. Maqom asoslar. Toshkent – 1992.
5. O. Matyoqubov. Maqomot. Toshkent “Musiq” – 2004
6. Wikipediya.ru - Internet sahifasi
7. Mavzuga oid yozma materiallar



O'ZBEK RAQS MAKTABLARINING YARATILISH TARIXI.

Aliyeva Shahlo Ozodboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
4-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim
maktabi musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari qatorida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rin tutuvchi bir yo'nalishdir. Raqs san'ati - ijod ruhiyatini, his-tuyg'ularni, fikrni so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir.

Kalit so'zlar. Havaskorlik, folklor-etnografik, klassik balet, rassomchilik, arxitektura, «Tanovar», «Ofarin», «Toshkent zebolari», «Sabo», «Tumor», «Parizoda», Raqs ijrochiligi, Xoreografiya, badiiy obraz.

«Xoreografiya» - o'zi nima? Bu so'z zamirida nima yotibdi? U yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «xoreia» - o'yin, «grapho» - yozaman, ya'ni so'zma-so'z tarjima qilinganda «Raqsni yozaman», degan ma'noni bildiradi. Ko'pchilik esa xoreografiyani raqs deb tushunadi. Lekin xoreografiya so'zi keng ma'noni o'z ichiga oladi. Bu atama ikki turda tavsiflandi: Raqs ijrochiligi - professional raqs ijrochiligi, xalq ijodiyoti negizidagi havaskorlik raqs ijrochiligi. Professional raqs ansambllarining davlat va xususiy ansambllari mavjud. «Bahor» (1957-yil), «Shodlik» (1968-yil), «Lazgi» (1968-yil) ansambllari ilk tashkil qilingan professional raqs ansambllaridan hisoblanadi. 1990-yillarda «Tanovar», «Ofarin», «Toshkent zebolari», «Sabo», «Tumor», «Parizoda» va shu kabi xususiy raqs ansambllari paydo bo'ldi. Unga shu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim tizimida o'qib fundamental bilimga ega boigan mutaxassislar ishga qabul qilinadilar. Ular ansambl rahbariyati bilan mehnat shartnomasini tuzadi va oylik maoshi bilan ta'minlanadilar. Shartnomada keltirilgan talablar bir tomondan buzilishiga yo'l qo'yilsa, ikkinchi tomondan shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. Raqqos va raqqosalarning yoshi chegaralanadi. 18 yoshdan ishga qabul qilinib, 36 yoshdan keyin nafaqaga chiqadilar. Ijodiy faoliyatiga qarab raqqos va raqqosalar ansambl rahbariyati yoki davlat tonionidan rag'batlantirilishi mumkin. Havaskorlik raqs ansambllari madaniyat va san'at muassasalarida, tashkilot yoki korxonalar qoshida alohida raqs ansambli, xalq ashula va raqs ansambllari yoki folklor-etnografik ansambllar tasarrufida bo'ladi. Bunday ansambllar raqs san'atiga ishtiyoqi baland bo'lgan, iqtidorli havaskorlardan tashkil topadi. Ularning mutaxassisligi, ma'lumoti va yoshi chegaralanmaydi. Ansambl ishtirokchilari rahbariyat yoki davlat tomonidan ishga qabul qilinmaydilar va ixtiyoriy tarzda qatnashchi sifatida faoliyat olib boradilar. Hozirgi kunda juda ko'plab bolalar va kattalar havaskorlik raqs ansambllari ijodiy faoliyatini olib bormoqdalar. Bunday ansambllar qatoriga Farg'onadagi «Anor», Surxondaryodagi «Surxon gullari», «Zevari», «Quralay», Namangandagi «Namangan gullari», Jizzaxning «Gulira'no», Sirdaryoning «Sirdaryo navolari» kabi ansambllar nomini keltirishimiz mumkin. Raqs ijrochiligi 3 turga bo'linadi: Yevropa klassik balet san'ati, xalq sahna (professional) raqs san'ati, xalq ijodiyoti negizidagi folklor va havaskorlik raqs ijrochiligi san'atidir. Inson raqsning qaysi turi bilan shug'ullanmasin, unga mumtoz raqs asoslarini o'zlashtirish xalal bermaydi. Raqqos va raqqosalar butun ijodiy faoliyati davomida mumtoz raqs bilan shug'ullanishi bejiz emas. Mumtoz raqs asoslari borliqni harakat orqali tasvirlash erkinligini va o'z tanasini musiqaning ma'lum bir o'lchovlarida nazokatli harakatlantira olish imkonini beradi. Xo'sh, «Balet san'ati qachon va qanday paydo bo'ldi?», degan savol tug'iladi. Balet Italiyada uyg'onish davrida yuzaga keldi. Unga an'anaviy madaniyat, antik raqs va pantomimalar asos bo'ladi. XVI asrdan boshlab raqsning balet janri gurrakib rivojlanadi. Musiqa, adabiyot, rassomchilik va arxitekturaning olg'a qadamlar bilan rivojlanishi san'at va musiqa daholarini paydo qildi. Motsart, Mikelandjelo, Leonardo da Vinchi, Myuler, Pyorsell, Bax, Gaydn, Vivaldi, Rembrandt - shular jumlasidandir. Venitsiya va Fransiyada raqsga bag'ishlangan maxsus kitoblar chop etila boshladi. Saroy raqs sahnalashtiruvchilarining «Raqsqa tushish san'ati va xorlarni olib borish» (XIV asr), «Raqs haqida risola» (1463-yil), «Raqsqa tushish san'ati haqida kitob» (1465-yil), «Raqqos» (1581-yil), «Sevgi saxovatleri» (1602-yil) kabi ilmiy ishlari chop etilgan. XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida italyan kompozitorlari va tansmeysterlari Fransiyaga ishga taklif etiladilar. Fransiyada shakllangan yangi balet butun Yevropaga tarqaldi. Vestris,



Mariya Talyoni, Andjolini, Pallerini kabi yetakchi baletmeysterlarning ijodi gurkirab yashadi. Italiyaning ko'zga ko'ringan Rim, Milan, Neapol, Florensiya, Venetsiya kabi shaharlarida opera teatrlari ochildi. Milanda «La - Scala» teatri qoshida raqs maktabi ochildi. Enriko Cheketti tomonidan bu maktab yanada jonlandi. E.Chekettidan yetakchi rus balet artistlaridan A.Pavlova, V.Nijinskiy, T.Krasavinalar ta'lim oigan. 1928-yilda esa Rimning opera teatri qoshida balet maktabi tuzildi. 1960-yilda «Milliy raqs akademiyasi» E.Vorosenko tomonidan boshqarila boshlandi. Alohida sahna asarlari uchun jamoalar o'z faoliyatini boshladilar. Nervida xalqaro balet festivali, «Florensiya musiqali may» festivali, Venetsiyada «Zamonaviy musiqa» festivali, Spoleta va Verona festivallari boiib o'tdi. Fransiya raqs akademiyasida yangi sahnaviy san'at janri - «Komediya-balet»ga asos solindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimova R. O'zbek raqslari. T. 2003-y.
2. Sayfullayeva D., Kazakbayeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. T. 2006-y.
3. www.ziyouz.com



VENGRIYADA MUSIQA TA'LIMI TIZIMI

Urazbayev Javlan Alimboyevich

Gurlan tumani 42 -AFCHO'I maktabi o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 364 65 65

u.lyudmila_42@inbox.uz

Kamalova Durdipashsha Xaytbayevna

Urganch tumani 27-son maktabi MMIBDO'

Telefon: +998 (97) 512 85 73

dx_kamalova27@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Vengriyada musiqa ta'limi tizimining o'ziga xos jihatlari haqida.

Kalit so'zlar: Musiqiy tarbiya, xor jamoasi, Koday metodi, Musiqa qo'shiqchiligi, guruhli kuylash.

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1882-1967) nomi bilan bog'liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sarmahsul faoliyatini Zoltan Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo'shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta'kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e'tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta'lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga "Tonika-sol-fa" usulini kiritdi. Uning g'oyalari ikkinchi jahon urushidan so'ng ommalashib ketdi. Koday metodi - bu yaxlit tizim bo'lib: relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o'quvchilarga qo'l harakati yordamida beradigan ko'rsatmalar, venger xalq qo'shiqlari, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim maktablari, xor sinflari hamda guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganda so'nggi musiqiy tarbiya qonsepsiyasi haqida, uni hayotga tadbqiq etish yo'llari to'g'risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi.

Guruhli kuylash Vengriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bo'lib, bunga musiqa savodxonligi, nota bo'yicha qo'shiq ayta olishga yordam beradi. Z.Kodayning "2000-yilga kelib, har bir umumta'lim maktabini bitirgan usmir notani erkin o'qiy oladi" - degan orzusi amalga oshmoqda.

Vengriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Butun mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi 8 yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar 4 sinfli gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada 2 marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda esa haftada 2 soat "Musiqa" o'quv fani bilan shug'ullanadilar.

Bundan tashqari, har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratilgan. Gimnaziyaning 3-4-sinflarida o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumta'lim maktablari orasida "Musiqa qo'shiqchiligi" to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda 1-4-sinf o'quvchilari haftada 6 soat, 5-7-sinflarda esa 4 soat musiqa va 2 soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Maktablarda, shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud.

Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umummaktab, sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham qisqartirilgan.

Boshlang'ich sinflarda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo'l harakatlari, maxsus imo-ishoralar qo'llaniladi.

Relyativ solminizatsiyani chuqur o'rgangandan so'ng, o'quvchilar mutlak tizimga o'tadilar. Musiqa ta'limini berish, shu jumladan musiqa o'quvini rivojlantirish uslubiyoti, asosan, bolalar ongining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta, yogoch simbala va ayrim urma cholg'ulardan foydalaniladi. Koday tizimi, ayniqsa, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan va umumiy



ta'lim maktablariida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Har kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg'ularni rivojlantiradi. 14-18-yoshdagi o'quvchilar ta'lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o'rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitiladi, shuningdek, sinfdan tashqari ishlaydigan xor va orkestr jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar.

Vengriyada maxsus musiqa ta'limi beradigan gimnaziya ham mavjud. Bunday gimnaziya bitiruvchilari, aksariyat hollarda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari bo'lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o'quv yurtlarida o'quvchilar umumta'lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg'usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o'rganishadi. Gimnaziya bitiruvchilari o'qishni (ta'lim olish muddati 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan) Ferens List nomidagi Musiqa akademiyasida davom ettirishlari mumkin. 2 yillik kurslarda umumta'lim maktablari uchun solfedjio, qo'shiq, biror musiqa cholg'u ijrochiligi bo'yicha, mutaxassis o'qituvchi tayyorlanadi. 5 yillik ta'lim esa oliy malakali o'qituvchi va ijrochi artistlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari Vengriyada yuqori sinf musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan 4 yillik oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bu yerda o'quvchilar muayyan musiqa ixtisosligi bilan birga ikkinchi mutaxassislik (masalan: musiqa va tarix, musiqa, til va boshqalar)ni egallaydilar.

Z.Koday tizimi Vengriyadagi musiqa ta'limi va tarbiyasining barcha bosqichlarida joriy etilmokda. Vengriya musiqashunos pedagoglarining tajribasi dunyoning ko'pgina malakatlarida jumladan, O'zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Z.Koday tizimi turli milliy madaniy an'analarga muqim ravishda moslashib bormoqda va shuning uchun u jahonning aksariyat mamlakatlarida keng miqyosda ommalashib ketdi.

Vengriyada butun xalq musiqiy savodini chiqarish vazifasi muvaffaqiyat bilan hal etilmokda. Bunda, musiqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan umumta'lim mamlakatlarida xor kuni o'tkaziladigan musiqa darslari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Guruhli kuylash Vengriyada, chindan ham, umumxalq jarayonidir, bunga odamlarning musiqa savodxonligi, notaga qarab kuylash malakasi ta'sir ko'rsatmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Voprosy metodiki muzыkal'nogo vospitaniya detey. M.: «Музыка», 2005
2. Vospitaniye muzыkoy. Moskva.: «Prosveteniye», 2011 g.
3. Kabalevskiy D.B. Kak rasskazyvat detyam o muzыke? M.: Prosveteniye, 2004.
4. Muzыkal'noye vospitaniye v shkole. Вып.19.: Sb.statey./Sostav. O.Apraksina. M.: Музыка, 2007.
5. D. Soipova Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi T.UzDK 2009y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(15-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
